XALQ DEPUTATLARI SAMARQAND VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-24-194-7-0-K/25 Samarqand viloyati

Samarqand viloyatining 2026-yilda jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i bo‘yicha o‘rnatilgan soliq stavkalariga kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni, mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy va yuridik shaxslarning ijara to‘lovini eng kam stavkalarining oshiruvchi koeffitsiyentlarini va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar uchun belgilangan stavkaga kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” hamda O‘zbekiston Respublikasining “Soliq va byudjet siyosatining 2026-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasining 2025-yil 12-noyabrdagi (24-127593-son) xati, viloyat Soliq boshqarmasining 2025-yil 28-noyabrdagi (20-181985-son) murojaatini inobatga olib, Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining yettinchi chaqiriq, yigirma to‘rtinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Samarqand viloyati Soliq boshqarmasi boshlig‘i (F.Babayev)ning Samarqand viloyatining 2026-yilda mo‘ljallangan Soliq va byudjet siyosati to‘g‘risida bergan hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning stavkalarini qonunchilikda belgilangan miqdorlar doirasida:

jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i bo‘yicha o‘rnatilgan soliq stavkalariga 0,7 dan 1,3 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 1-ilovaga muvofiq;

qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar uchun belgilangan stavkaga 0,5 dan 1,2 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 2-ilovaga muvofiq;

mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy va yuridik shaxslarning ijara to‘lovining eng kam stavkalariga 2,0 gacha oshiruvchi koeffitsiyentlar 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlariga mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning stavkalarini qonunchilikda belgilangan miqdorlarda quyidagicha tasdiqlash tavsiya qilinsin:

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga 0,7 dan 1,3 gacha qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori;

noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsiyentlar miqdori.

4. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

5. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Po‘latov) hamda viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari (Sh.Buranov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **NEGMATOV SHUHRAT XUDOYBERDIYEVICH**

Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-24-194-7-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i stavkalari bo‘yicha tuman va shaharlar kesimida 2026-yilga belgilangan koeffitsientlari

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Koeffitsient (0,7 dan 1,3 gacha)				
		Uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari (umumiy maydoni 200 kv.m gacha bo‘lganlarini qo‘shib hisoblaganda), ko‘p kvartirali uylarga uzviy bog‘liq bo‘lgan avtomashina turar joylari, shuningdek boshqa imoratlar, binolar va inshootlar	200 kv.m dan ortiq va 500 kv.m gacha bo‘lgan	500 kv.m dan ortiq bo‘lgan	Boshqa aholi punktlarida joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.m dan ortiq bo‘lgan uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari	Tadbirkorlik faoliyati uchun yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berishda foydalaniladigan soliq solish obyektlari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromadlar olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk obyektlari
1	Samarqand shahar	1,25	1,25	1,25	1,25	1,00
2	Toyloq tuman	1,15	1,15	1,15	1,25	1,00
3	Kattaqo‘rg‘on shahar	1,15	1,15	1,15	1,20	1,00
4	Oqdaryo tuman	1,15	1,15	1,15	1,20	1,00
5	Bulung‘ur tuman	1,10	1,10	1,10	1,20	1,00
6	Jomboy tuman	1,15	1,15	1,15	1,20	1,00
7	Ishtixon tuman	1,10	1,10	1,10	1,20	1,00
8	Kattaqo‘rg‘on tuman	1,10	1,10	1,10	1,20	1,00

9	Qo‘shrabot tuman	1,10	1,10	1,10	1,20	1,00
10	Narpay tuman	1,10	1,10	1,10	1,20	1,00
11	Payariq tuman	1,10	1,10	1,10	1,20	1,00
12	Pastdarg‘om tuman	1,15	1,15	1,15	1,20	1,00
13	Paxtachi tuman	1,10	1,10	1,10	1,20	1,00
14	Samarqand tuman	1,20	1,20	1,20	1,25	1,00
15	Nurobod tuman	1,10	1,10	1,10	1,20	1,00
16	Urgut tuman	1,15	1,15	1,15	1,50	1,00

Xalq deputatlari Samarqand
viloyati Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-24-194-7-0-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar bo‘yicha tuman va shaharlar kesimida yer solig‘i stavkalari uchun 2026-yilda belgilangan koeffitsientlar

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer solig‘i normativ qiymat bo‘yicha (0,5 dan 1,2 gacha)	
		Koeffitsient (0,5 dan 1,2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2026 yil uchun Stavka (%)
1	Samarqand shahar	1,19	1,13
2	Toyloq tuman	1,19	1,13
3	Kattaqo‘rg‘on shahar	1,00	0,95
4	Oqdaryo tuman	1,18	1,12
5	Bulung‘ur tuman	1,15	1,09
6	Jomboy tuman	1,19	1,13
7	Ishtixon tuman	1,15	1,09
8	Kattaqo‘rg‘on tuman	1,15	1,09
9	Qo‘shrabot tuman	1,00	0,95
10	Narpay tuman	1,15	1,09
11	Payariq tuman	1,15	1,09
12	Pastdarg‘om tuman	1,18	1,12
13	Paxtachi tuman	1,15	1,09
14	Samarqand tuman	1,19	1,13
15	Nurobod tuman	1,00	0,95
16	Urgut tuman	1,18	1,12

Xalq deputatlari Samarqand
viloyati Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-24-194-7-0-K/25 -son qaroriga
3-ilova

2026-yil uchun mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy va yuridik shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalariga tuman va shaharlar bo‘yicha qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Koeffitsiyent	
		Turar joylar	Noturar joylar
1	Samarqand shahar	1,17	1,17
2	Toyloq tuman	1,15	1,15
3	Kattaqo‘rg‘on shahar	1,17	1,17
4	Oqdaryo tuman	1,15	1,15
5	Bulung‘ur tuman	1,15	1,15
6	Jomboy tuman	1,15	1,15
7	Ishtixon tuman	1,15	1,15
8	Kattaqo‘rg‘on tuman	1,15	1,15
9	Qo‘shrabot tuman	1,00	1,00
10	Narpay tuman	1,15	1,15
11	Payariq tuman	1,15	1,15
12	Pastdarg‘om tuman	1,15	1,15
13	Paxtachi tuman	1,15	1,15
14	Samarqand tuman	1,17	1,17
15	Nurobod tuman	1,00	1,00
16	Urgut tuman	1,15	1,15